

OILAVIY MUNOSABATLARDA MULOQOTNING SAMARALI JIHATLARI

M. Nurmatova¹*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada oilaning ijtimoiy orni va oiladagi muloqotni samarali tashkil etish haqida yoritib o'tilgan. Oila a'zolarining xulq-atvor motivlari bayon etilgan. Muloqotga oid bilimlar va fikr-g'oyalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Oila, ijtimoiy xulq-atvor, muloqot, maqsad, motiv.

doi: <https://doi.org/10.2024/49fpa320>

Har bir insonning ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Muloqot jarayonining namoyondalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodi oilada o'sib ulga'yotgan aloqalar tizimi va insonning dunyoqarashi tub mohiyatini anglash kabi ijtimoiy xulq motivlaridan iboratdir. Inson shaxsining rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini o'rganish va tahlil qilish pedagogik-psixologik bilimlar bilan bog'liq. Insonlar bir-birlari bilan muloqotga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri — fikr-g'oyalariga ko'ndirish, harakatga chorlash, o'zaro ta'sir ko'rsatish, ustanovkalarni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Kommunikativlik qobiliyatlarni rivojlantirishda shaxslardagi individual psixologik xususiyatga ham alohida e'tibor berish lozim bo'ladi.

Bizga ma'lumki, barcha insonlar qobiliyatli bo'ladilar, biroq ularning barchasi ham o'zlaridagi qobiliyatlarni rivojlantirish bilan shug'ullanishmaydi. Oilada muloqotni samarali tashkil etishda o'zidagi umumiy va maxsus qobiliyatlarni rivojlantirishi lozim bo'ladi. Barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish uquvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyatiga boshqa odamlar ham taqlid qiladi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Odamlar o'rtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida g'ayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish o'zini-o'zi mukammallashtirish, ro'yobga chiqarish, boshqarish, baholash, o'ziga-o'zi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosidagi muhim kamolot darajasidagi bosqichidir. Shuning uchun ichki va tashqi taqlidni tushunish hamda bosqichma-bosqich egallab borish bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishining garovidir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan, quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samara beradi:

- hamkorlik faoliyatida, oilada muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional yaqinlik muhitni yaratish imkoniyatini yuzaga keltirish;

- muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay mavqeini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

- insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to'g'risidagi axborotni egallashiga oid maxsus mashg'ulotlarni uyushtirishdan iboratdir.

Ko'pincha inson oila a'zosi bo'lmagan boshqa kishi bilan muloqotga kirishar ekan, asosiy maqsadi u kishini o'rganish bilan birga, o'zi haqidagi fikrlarni bilishga intiladi.

¹ Nurmatova Mamlakatxon Himmatovna, Samarqand davlat chet tillar instituti. Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalar kafedrasida katta o'qituvchisi

Demak, odam o'zining aksini ko'rishi uchun ham iloji boricha ko'p odam bilan muloqotda bo'lishi kerak.

Inson o'zidagi ba'zi bir sifatlarni tekshirishi uchun va tasdiqlashi uchun, shu sifatlarni boshqa odamlarda (chuqurroq munosabatda, kengroq munosabatda bo'lishi) ham izlaydi. Agar shaxs, ba'zan o'zidagi sifatlarni boshqa kishilarda topmasa yoki uni tushunmasa (tushunmasalar) bu kishida o'ziga ishonchsizlik, o'zidan qoniqmaslik hissi kelib chiqadi, bu esa o'z navbatida kishida o'zidan norozilik, qo'rquv kabi ruhiy holatni yuzaga keltiradi. Oilada bunday muloqotlarning samaradorligi kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirish davomida o'z-o'zidan diplomatik qobiliyat ham rivojlanadi. Muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishi shaxsning shakllangan sifatlari, shaxsiy fazilatlarining ahamiyati juda katta, jumladan, shaxsda ijobiy shaxsiy fazilatlar: xushmuomalalik, kamtarlik, insonparvarlik, to'g'ri so'zilik, vijdonlilik kabi shaxsiy sifatlar bilan birga bilimlilik, mulohazalilik, notiqlik, intellektning rivojlanganligi ham muhim o'rin tutadi. Muloqot jarayonini samarali tashkil etishda muloqotni to'g'ri tashkil etish muhim o'rin tutadi. Quyidagi psixologik bilimlarga tayangan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

- muloqotga kirishish va salomlashishda tabassum qilish;
- muloqot davomida o'zining samimiyligini bildirish;
- muloqot davomida o'zaro sabr bilan tinglashni o'rganish;

Oilada muloqotni ijobiy shakllantirish, munosabatlarda xafagarchilik hissini uyg'otmasdan turib boshqa odamga nisbatan o'zining ta'sirini o'tkazishdir. Masalan, shaxslararo munosabatlarda biron muammo yuzasidan norozilikni bildirishdan oldin avval uni maqtab qo'yish, suhbatdoshga buyruq berishni o'rniga savol bilan murojaat qilish; kichik yutuqlar bo'lsa ham uni so'z bilan maqtab qo'yish insondagi ijobiy emotsiyalarni uyg'otadi. Shu sababli inson uchun eng muhim narsa muloqotdagi sherigining (partnerining) o'zi bilan hamfikrligi ham inobatga olinadi. Oilada o'zaro muloqot jarayonida tabassum qilish, tinglash mahorati, suhbatdoshning qiziqishlarini inobatga olish, samimiy munosabat bildirishni shakllantirgan bo'lishi lozim. Muloqot har qanday odam, oila, jamiyat faoliyatining zaruriy va umumiy sharti, har tomonlama rivojlanishining muhim omili, ongli odamni tabiatdan ajratib turuvchi mezonlardan biridir. Muloqot juda murakkab jarayon bo'lib, u odamlarning o'zaro iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-ma'naviy munosabatlarini, aloqalarining yigindisidan tashkil topadi. Oilada bir vaqtning o'zida har bir odamda ichki mazmun va mohiyat, tashqi ifoda hamda ularning mushtarakligi yoki mushtarak emasligi tarzida sezilib turadi. O'zaro munosabatlar va o'zaro muloqot jarayoni oilada ko'plab ilmiy bilimlarga tayanilgan holda tashkil etilishi ham maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Bespalko V.P. *Components of pedagogical technology*. M.: Pedagogy, 1989. 192 p.
- [2]. Karimova V.M., Akramova F.A. *Psixologiya. Ma'ruzalar matni*. – T., 2005.
- [3]. Klimov Ye.A. *Osnovy psixologii*. – M., 1998.
- [4]. G'oziev E.G. *Muomala psixologiyasi*. T-2001.
- [5]. Karnegi D. *Kak zavoovat družey i okazivat vliyanie na lyudey*. —M., 1990.